



## XALQARO HUQUQDA DAVLATLARNING VORISLIK MASALALARI

*Sobirova Ruxshona Otabek qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro huquqda davlatlarning vorisligi (successio) masalalari tahlil qilinadi. Davlatlararo munosabatlar kontekstida vorislik tushunchasining huquqiy asoslari, ularning tarixiy shakllanishi hamda zamonaviy xalqaro huquq normalaridagi ifodalanish shakllarini ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, sobiq mustamlaka hududlarining mustaqillikka erishishi, davlatlarning parchalanishi yoki birlashishi natijasida yuzaga kelgan vorislik holatlari tahlil qilinib, ularning xalqaro shartnomalar, moliyaviy majburiyatlar, diplomatik munosabatlar va mulkiy munosabatlardagi huquqiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot, xalqaro huquqiy hujjatlar, amaliy misollar va ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, davlat vorisligi, successio, shartnomalar, davlatlarning parchalanishi, mulkiy munosabatlar, mustamlaka, diplomatik munosabatlar, huquqiy oqibatlar.

### *State Succession in International Law*

**Annotation:** This article analyzes the issues of state succession (successio) in international law. It examines the legal foundations of the concept of succession within the context of interstate relations, its historical development, and its forms of expression in modern international legal norms. The article also explores cases of succession arising from the decolonization process, the dissolution or unification of states, and their legal consequences in relation to international treaties, financial obligations, diplomatic relations, and property issues. The study is based on international legal documents, practical examples, and theoretical perspectives.



**Keywords:** international law, state succession, successio, treaties, state dissolution, property relations, colonization, diplomatic relations, legal consequences.

### **Правопреемство государств в международном праве**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы правопреемства (*successio*) государств в международном праве. Анализируются правовые основы понятия правопреемства в контексте межгосударственных отношений, его историческое развитие и формы выражения в нормах современного международного права. Также в статье рассматриваются случаи правопреемства, возникающие в результате получения независимости бывшими колониями, распада или объединения государств, и их правовые последствия в отношении международных договоров, финансовых обязательств, дипломатических и имущественных отношений. Исследование основано на международных правовых актах, практических примерах и теоретико-правовых подходах.

**Ключевые слова:** международное право, правопреемство государств, *successio*, договоры, распад государств, имущественные отношения, колонии, дипломатические отношения, правовые последствия.

**Kirish.** Xalqaro huquqda davlatlarning vorislik masalalari dolzARB va murakkab huquqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan beri davlat vorisligi juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda, chunki u har qachongidan ham ko’proq davlat va ular o’rtasidagi huquqiy munosabatlarga ta’sir qiladi. Dekolonizatsiya tugashi bilan 100ga yaqin yangi davlatlar vujudga keldi. Misol tariqasida, Germaniya qatra birlashdi, Sobiq Sovet Ittifoqi, Yugoslaviya va Chexoslovakiya tarqalib ketdi. Mazkur holatda esa davlatlarning mulklari, shartnoma va qarzlariga nisbatan vorislik masalalari yuzaga keldi. Davlatlarning huquqiy vorisligi, asosan, bir davlatning tugashi, yangi davlatning tashkil topishi yoki davlatlararo chegaralarning o‘zgarishi jarayonida yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda davlatlar o‘zaro huquq va majburiyatlarni qabul qilishlari kerak bo‘ladi, bu esa xalqaro huquqning izchilligi va davlatlar o’rtasidagi munosabatlarning barqarorligini



ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, xalqaro shartnomalar, mol-mulk, qarzlar va xalqaro tashkilotlardagi o'rinalar kabi masalalarda huquqiy vorislik katta rol o'ynaydi. Xalqaro munosabatlarda davlatlarning vorislik jarayoni ko'pincha keskin siyosiy va huquqiy bahslarga sabab bo'ladi. Davlatlarning bo'linishi yoki birlashishi, yangi davlatlarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan huquqiy vorislik masalalari davlatlararo nizolar, xalqaro iqtisodiy qarzlar, mulkiy nizolar va xalqaro tashkilotlardagi o'rnlarni taqsimlash masalalarini yechishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro huquq davlatlarning vorislik masalalarini tartibga solish bo'yicha aniq va samarali qoidalarni belgilashi lozim. Ushbu ishning asosiy maqsadi – xalqaro huquqda davlatlarning vorislik masalalarini batafsil o'rganish, ularning xalqaro munosabatlardagi ahamiyatini tahlil qilish va mavjud huquqiy normalarning dolzarbligini ko'rsatishdir. Ish davomida vorislikning xalqaro shartnomalar, mol-mulk, qarzlar va xalqaro tashkilotlardagi o'rnlarga ta'siri hamda bu jarayonlarda davlatlarning qanday yondashuvlarni qo'llashi o'rganiladi.

**Asosiy qism.** Huquqiy vorislik muammolari 1949-yildayoq Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro huquq komissiyasining kun tartibiga kiritilgan edi. Hozirgi kunga kelib davlatlarning huquqiy vorisligi masalalari kodlashtirilgan va ikki xalqaro konvensiyada o'z aksini topgan. Bular: 1978-yilgi xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlar huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi va 1983-yilgi Davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan davlatlar huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasidir.<sup>1</sup> Ularning mazmuniga kelganda, ikkala konvensiyaham "davlatlar huquqiy vorisligi" tushunchasini bir xilda talqin etadi, ya'ni u biror bir hududning xalqaro munosabatlari uchun mas'ul bo'lishda bir davlat o'rnini ikkinchi davlat egallashini anglatadi.<sup>2</sup> 1978-yilgi Vena Konvensiyasi quuyidagi hollarda vujudga keladigan davlatlarni shartnomalarga bo'lgan huquqiy vorisligini tartibga soladi:

1) avvalgi tobe hududlarda yangi mustaqil davlatlar tashkil topishi;

<sup>1</sup> R.A.Tuzmuhamedov, R.T.Hakimov. Xalqaro huquq asoslari. T, 1998. 20-21-betlar.

<sup>2</sup> Vienna Convention on succession of States in respect of Treaties, 2005.



2)bir necha davlatlarning birlishishi yoxud bir necha mustaqil davlatlarga bo'linib ketishi;

3)kelishuvlarga muvofiq bir davlatga tegishli bo'lgan huquqning bir qismining boshqa bir davlatga berishi.

Konvensiyada bir qator ijobjiy jihatlar mavjud va ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-yangi mustaqil davlatning o'zining xalqaro huquqiy aloqalarini mustaqil belgilash huquqi;

-ozod bo'lgan davlatning o'z tabiiy boyliklariga bo'lgan mustaqil belgilash huquqi;

-o'zining yurisdiksiyasi ostida bo'limgan hududlarda chet el harbiy bazalarini barpo etish holatlarining noqonuniyligi;

-merosxo'r davlatning xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlarga rioya etish majburiyatining mustahkamlanishi mavjuddir.

1983-yilda qabul qilingan Davlat mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan davlatlar huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasining davlat mulki tog'risidagi qismida muhim bir qoida(9-modda) belgilab qo'yilgan ya'ni o'tmishdosh davlat mulkining merosxo'r davlatga o'tishi bilan uning mulkka bo'lgan huquqlari bekor bo'ladi va merosxo'r davlatda esa ushbu mulkka nisbatan huquq paydo bo'ladi. Mazkur konvensiya umumiyligini sifatida o'tmishgdosh davlat mulkining merosxo'r davlatga hech qanday to'lov ya'ni kompensatsiyasiz o'tishini belgilab bergen. Davlatning merosga bo'lgan huquqi amalga oshiriladigan paytda o'tmishdosh davlatning hududida bo'lgan va uning ichki huquqlariga muvofiq uchinchi davlatga tegishli bo'lgan mulk huquq va manfaatlariga nisbatan merosxo'r davlat daxil qilmaydi.<sup>3</sup>

Ushbu fikrlardan ko'rinish turibdiki, huquqiy vorislik – bir davlatning boshqasiga almashishi natijasida muayyan hududdagi xalqaro munosabatlar bo'yicha javobgarlik bilan bog'liq huquq va majburiyatlarga egalik qilishi.<sup>4</sup> Huquq va burchlar

<sup>3</sup> A.X.Saidov. Xalqaro huquq,darslik. T,2001. 71-72-betlar

<sup>4</sup> Xalqaro huquq, Ma'ruzalar kursi. T,2012. 42-bet.



bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotganida davlatning uchta eng muhim belgisi (hokimiyat, aholi, hudud)dan aynan hudud hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Huquqiy vorislik xalqaro huquqning ancha eski institutlaridan biri sanalib, u so'nggi o'n yilliklar xalqaro amaliyotida keng tarqaldi. O'tgan asrning 60-70-yillarda g'arb mamlakatlarining sobiq mustamlakalari o'rnida tashkil topgan 80ga yaqin mustaqil davlatlarga nisbatan huquqiy vorislik konsepsiysi qo'llandi. Ushbu konsepsiya ijtimoiy-siyosiy tuzum o'zgarishi munosabati bilan Rossiya davlatida qo'llangan(uning o'rnida 1917-yilda RSFSR, 1992-yil – SSSR tashkil topdi). Bundan tashqari Xitoyda (1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi deb e'lon qilingan) va Kubada(1959-yil mustabid tuzum ag'darilganidan keyin) ham qo'llangan.

Huquqiy vorislikni amalgalashish jarayonida unda qancha qancha davlat ishtirok etayotganiga qaramay doim ikki taraf farqlanadi: xalqaro munosabatlar uchun javobgarlikni to'liq yoki qisman topshirayotgan davlat va javobgarlikni o'ziga olayotgan voris davlatdir.

Shu o'rinda huquqiy vorislik masalasi qanday hollarda yuzaga keladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunga esa quyidagi holatlarni keltirish mumkin:

Bir davlat ikki yoki undan ortiq yangi davlatlarga ajralganida;

Ikki yoki undan ortiq davlatlar yagona yangi davlat sifatida birlashganida;

Davlat hududining muayyan qismida yangi davlat tashkil topganida;

Bir davlat boshqasining tarkibiga kirganida;

Bir davlat hududining muayyan qismi boshqasiga o'tganida.

Xalqaro huquqda davlatlarning huquqiy vorisligining ikki asosiy usuli mavjud bo'lib, shulardan birinchisi so'zsiz huquqiy vorislik(automatic state succession) hisoblanadi. Bu usulga ko'ra yangi davlatlar xalqaro majburiyatlarni va huquqlarni hech qanday muzokarasiz yoki qo'shimcha hujjat qabul qilmasdan o'z zimmasiga oladi.<sup>5</sup> Masalan:

1.Janubiy Yaman va Shimoliy Yamanning birlashishi(1990): Janubiy va Shimoliy Yaman birlashib, yagona Yaman Respublikasi tashkil topganida, xalqaro

<sup>5</sup> Valentin Bou-Franch. Succession of States in Respect of Treaties on Human Rights.



huquqlar va majburiyatlar to'g'ridan to'g'ri yangi davlat tomonidan davom ettirilgan. Bu holatda hech qanday yangi kelishuvlar tuzilmagan.<sup>6</sup>

2.Germanyaning qayta birlashishi (1990): G'arbiy va Sharqiy Germaniya birlashganida, yangi davlat sifatida huquqiy vorislik hech qanday yangi hujjatlarsiz amalga oshdi.<sup>7</sup> Yangi Germaniya Federativ Respublikasi xalqaro maydondagi majburiyatlarini to'g'ridan to'g'ri qabul qildi. So'zsiz huquqiy vorislik odatda davlatlarning birlashishi yoki mustaqillik jarayonida xalqaro maydondagi izchillikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Ikkinci usul, tabula rasa (yoki “toza qog'oz) prinsipi bo'yicha vujudga keladigan huquqiy vorislikdir. Tabula rasa prinsipi xalqaro huquqda davlatlar huquqiy vorisligi jarayonida yangi davlatning avvalgi davlat xalqaro majburiyatlarini yoki shartnomalarini davom ettirmasligini anglatadi.<sup>8</sup> Bu prinsipga ko'ra, yangi mustaqil davlat o'zini avvalgi davlatning qarzları va xalqaro shartnomalaridan ozod deb hisoblaydi va yangi shartnomalar tuzishni tanlaydi. Misol uchun,

1.Afrika davlatlarining mustaqilikka erishishi: 1960-yillarda dekolonizatsiya jarayonida Afrika davlatlari mustaqil bo'lganlaridan, ko'pchilik sobiq mustamlaka davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qildi.<sup>9</sup> Masalan, Tanganika mustqaillikka erishgach, avvalgi Britaniya shartnomalarini bekor qilib, yangi xalqaro majburiyatlar oldi.

2.Hindiston va Pokistonning Britaniya Hindistonidan ajralishi(1947-yil, avgust)<sup>10</sup>: Hindiston va Pokiston mustaqillikka erishgach, Britaniya bilan tuzilgan ko'plab xalqaro shartnomalar va majburiyatlardan ozod bo'lib, yangi davlat sifatida yangi xalqaro kelishuvlar imzolashni tanladi.

Mazkur prinsip asosan yangi mustaqil davlatlarning sobiq mustamlaka davrida tuzilgan shartnomalar bilan bog'liq bo'lган huquqiy vorislik jarayonlarida qo'llaniladi.Odatda, har ikki usul xalqaro huquqiy amaliyotda aralash holda qo'llaniladi.

<sup>6</sup> Zoltan Barany. The challenges of building a national army in Yemen. CSIS, 2016.

<sup>7</sup> Germaniya Federativ Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmida. Maqola, 2023.

<sup>8</sup> I.Lukashuk, A.Saidov. Hozirgi zamon Xalaqaro huquqi nazariyasi asoslari. T,2007. 102-103-betlar.

<sup>9</sup> J.R.Ismoilov. Afrikada Fransuz mustamlakalarida mustaqillik uchun kurash.

<sup>10</sup> BBC News Uzbek – Hindiston va Pokiston:bo'linish va mustaqillik, maqola.



Davlatlar vorisligi turli xil shakllariga ega ya’ni bular shartnomalar bo’yicha huquqiy vorislik, davlat mulki bo’yicha huquqiy vorislik, davlat arxivlari bo’yicha huquqiy vorislik va davlat qarzlari bo’yicha huquqiy vorislik.

**1.Shartnomalar bo’yicha huquqiy vorislik.** Xalqaro huquqda davlatlarning shartnomalar bo’yicha huquqiy vorisligi – bu davlatning o’z suvereniteti yoki hududi o’zgarganida (masalan, yangi davlat paydo bo’lganda, davlatlar qo’shilganda yoki bo’linganda ) o’zidan avvalgi davlatlarning xalqaro shartnomalaridagi huquq va majburiyatlarini davom ettirish yoki rad etish imkoniyatidir.

Bunga misol qilib Yugoslaviya Federativ Respublikasining parchalanishini keltirishimiz mumkin. 1990-yillarda Yugoslaviya Federativ respublikasi parchalanib, uning o’rnida yangi davlatlar paydo bo’ldi. Sobiq Yugoslaviyaning yangi davlatlaridan to’rttasi vorislik huquqini talab qildi. Uzoq davom etgan siyosiy munozaralardan so’ng xalqaro hamjamiyat sobiq Yugoslaviyaning vorisi beshta davlat ekanligini toliq tan oldi: Serbiya va Chernogoriya(keyinchalik ular ham ikkiga bo’lingan), Xorvatiya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya va Sloveniya. Sobiq Yugoslaviya uchun vorislik tamoyilini o’rnatishning huquqiy asosi BMT va Yevropa Ittifoqi tomonidan qo’llab-quvvatlangan Sobiq Yugoslaviya bo’yicha xalqaro konferensiya(ICFY) o’zining mashhur arbitraj komissiyasi orqali amalga oshirilgan ishlar bilan ta’minlandi. Ushbu davlatlarning xalqaro shartnomalar bo’yicha huquqiy vorisligi xalqaro hamjamiyat tomonidan har xil tarzda tan olingen. Yugoslaviya parchalanganidan so’ng yangi paydo bo’lgan davlatlarning aksariyati Yugoslaviya tarkibida imzolangan shartnomalarning vorisi sifatida tan olinishini talab qildi yoxud ba’zi hollarda shartnoma bo’yicha majburiyatlarni davom ettirishni tanladi.<sup>11</sup> Lekin bu borada ham turli xil yondashuvlar kuzatildi.

1.Serbiya va Chernogoriya: bu davlatlar o’zlarini Yugoslaviya federativ respublikasining huquqiy vorisi deb e’lon qilishdi hamda Yugoslaviya imzolagan barcha barcha xalqaro shartnomalardagi huquq va majburiyatlarni zimmasiga oldi.

<sup>11</sup> The Agreement on succession issues of the former socialist Federal Republik of Yugoslavia. Cambridge University Press,2017.



2006-yilga kelib Chernogoriya mustaqil bo'lganidan keyin xalqaro shartnomalar bo'yicha Serbiya Yugoslaviyaning vorisi sifatida qoldi.<sup>12</sup>

2.Xorvatiya va Sloveniya: ushbu davlatlar o'z mustaqilligini 1991-yilda qabul qildi. Mazkur davlatlar Yugoslaviya imzolagan shartnomalar bo'yicha faqat o'ziga mos keladigan huquqlarni davom ettirish yoki shartnomalar majburiyatlariga amal qilishini o'z xohishlariga ko'ra tanladi.

3. Bosniya va Gersegovina: bu davlatlar o'z mustaqilligiga 1992-yilning bahorida erishdi. Mazkur davlat xalqaro huquq bo'yicha Yugoslaviyaning ayrim shartnomalari bo'yicha vorislikni tan oldi.Xalqaro hamjamiyat ham ushbu davlatni Yugoslaviyaning vorisi sifatida qabul qilgan shartnomalar doirasida yangi davlat sifatida tan oldi.<sup>13</sup>

1978-yildagi "davlatlarning shartnomalar bo'yicha vorisligi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi bu kabi murakkab vaziyatlar uchun asosiy yo'riqnomasi hisoblansada, biroq unda davlatlarning shartnomalardagi huquq va majburiyatlarni tanlashda aniq qoidalar belgilanmagan. Natijada, Yugoslaviya holatida yangi dalatlarning har biri o'z manfaatlarida kelib chiqqan holda xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislikni tanlash yoki rad etish huquqiga ega bo'ldi.

**2.Davlat mulki bo'yicha huquqiy vorislik.** Bu bir davlatning tugatilishi, bo'linishi yoki birlashishi natijasida uning davlat mulklari, aktivlari hamda passivlarining yangi paydo bo'lgan davlatlarga o'tish jarayonidir. Mazkur vorislik masalasi davlatlar o'rtaida mulk huquqlari va majburiyatlarni taqsimlashni tartibga solishni talab qiladi. Bu borada 1983-yildagi Vena Konvensiyasi(Vienna Convention on Succession of States in respect of State property, Archives and Debts) asosiy hujjat hisoblanadi. Unga ko'ra huquqiy vorislik rejimi jismoniy va Yuridik shaxslarning mol-mulkiga ta'sir qilmaydi. Mazkur konvensiya 8-moddasiga ko'ra "avvalgi davlatning davlat mulki" deganda, "avvalgi davlatning ichki huquqiga binoan, huquqiy vorislik paytida unga tegishli hisoblanganmol-mulk, huquq va manfaatlar" tushuniladi.<sup>14</sup>

<sup>12</sup> Biser Banchev. The new old states Serbia and Montenegro as successors to Yugoslavia and-or to themselves, January 2011.

<sup>13</sup> Milan M.Cvikel, Mojmir Mrak. Former Yugoslavia's Debt Apportionment, June 1996. P-20,21.

<sup>14</sup> Vienna Convention on Succession of States in respect of State Property, Archives and Debts, 1983.



Davlat mulki, odatda, avvalgi davlatdan merosxo'r davlatga moliyaviy to'lov larsiz o'tadi. Biroq, mulkning avtomatik va tekin holda o'tishi avvalgi yoki merosxo'r davlatning asossiz boyib ketishining oldini olish uchun moliyaviy kompensatsiya berilishini istisni etmaydi. Davlat mulkining oldingi davlatdan keyingi davlatga o'tishi birinchisining huquqlarining yo'qolishiga va ikkinchisining huquqlari paydo bo'lishiga olib keladi. Ushbu qarorning boshqa qoidalariga zarar yetkazmagan holda bu ularning huquq va majburiyatlarining yangilanishiga olib keladi.<sup>15</sup> Davlat mulki bo'yicha vorislikka taalluqli aktivlar quyidagilar hisoblanadi:

1)davlat mulki: bu yerlar, davlat inshootlari, bimolar, xalqaro zaxiralar, oltin va boshqa aktivlarni o'z ichiga oladi;

2)davlat arxivlari: sobiq davlatga tegishli rasmiy hujjatlar, shu jumladan, diplomatik v atarixiy arxivlar;

3)davlatning chet eldag'i mulklari: diplomatik vakolatxonalar, elchixonalar va boshqa chet eldag'i aktivlar.

1949-yilda Germaniya ikki mustaqil davlat G'arbiy Germaniya(Germaniya federativ respublikasi) va Sharqi Germaniya(Germaniya demokratik respublikasi) tarzida tashkil topdi. Har ikki davlat o'z suverenitetiga ega bo'ldi va xalqaro maydonda ham o'z shartnomalariga, mulkiga ega edi. Biroq 1990-yilda ikki Germaniya yana qaytadan birlashdi<sup>16</sup>, bu esa xalqaro huquq doirasida davlat mulki bo'yicha huquqiy vorislik masalalarini keltirib chiqardi. Birlashuvdan keyingi mulk taqsimoti:

1.Diplomatik mulk va elchixonalar: Germaniya demokratik respublikasining chet eldsagi diplomatik vakolatxonalari, shu bilan birga binolar ham Germaniya federativ respublikasiga o'tdi. Birlashgan Germaniya oldin GDRga tegishli bo'lган barcha diplomatik huquqlarni o'zining zimmasiga oldi.<sup>17</sup>

2.Moliyaviy majburiyatlar va qarzlar: Germaniyaning davlat qarzi qayta birlashish paytida muhokama qilingan yana bir muhim masalalardan edi. Germaniya federativ respublikasi Germaniya demokratik respublikasining xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar oldidagi qarzlari va majburiyatları uchun javobgarlikni zimmasiga

<sup>15</sup> State Succession in Matters of Property and Debts. Session of Vancouver-2001.

<sup>16</sup> The editors of Encyclopedia Britannica, Cold War(international politics), 2024.

<sup>17</sup> Konrad Adenauer Stiftung. From Fall of the Wall to Unity.



oldi. Bu holat GFRning yagona, barqaror iqtisodiy va siyosiy tuzilmani yaratish maqsadiga to'g'ri keldi.

3.Ichki davlat mulklari: Yagona Germaniya hukumati davlat mulkini, shu jumladan Sharqiy Germaniyadagi sanoat va qishloq xo'jaligi aktivlarini yagona federal boshqaruv ostida qaytadan tuzdi. Yirik sanoat korxonalaridan tortib kichik mahalliy aktivlarga bo'lgan turli xildagi davlat aktivlari ushbu o'tish davrini boshqarish uchun tashkil etilgan "Trehandastalt" boshchiligidagi keng qamrovli qayta qurish tashabbuslari doirasida xususiyashtirildi yoki o'zgartirildi.<sup>18</sup>

**3. Davlat arxivlari bo'yicha huquqiy vorislik.** Arxivlar nafaqat ilmiy, madaniy bebaho xazina, shu bilan birga ular davlatning tashkil topishi hamda gullab-yashnashida ham muhim ahamiyat kasb etadi. 1983-yildagi Vena Konvensiyasining alohida qismi ham arxivlarga bag'ishlangan. Ushbu konvensiya 23-moddasiga ko'ra, "avvalgi davlatning davlat arxivlari" huquqiy vorislik predmeti hisoblanadi. Bu tushuncha avvalgi davlat ishlab chiqargan yoki sotib olgan va ichki huquq bo'yicha unga mansub hisoblangan va uning tomonidan saqlanayotgan har qanday tarixga ega bo'lgan hujjatlar jamlanmasini anglatadi. Umumiy qoidaga ko'ra arxivlarning topshirilishida kompensatsiya ko'zda tutilmaydi. Konvensiya 24-moddasiga ko'ra esa huquqiy vorislik avvalgi davlat hududida joylashgan, biroq uning ichki huquqiga asosan uchinchi davlatga tegishli hisoblangan arxivlarga daxl qilmaydi. Xalqaro huquqqa ko'ra uchinchi mamlakatga tegishli hisoblangan arxivlar ham huquqiy vorislikning predmeti bo'la olmaydi. Ularni topshirgan holda avvalgi davlat xalqaro huquqiy jihatdan javobgar hisoblanadi. Bundan tashqari Vena konvensiyasida davlat arxiv fondlari yaxlitligini saqlash prinsipi ham mustahkamlab qo'yilgan. Bu prinsip 1992-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi(MDH) doirasida imzolangan hujjat – Sobiq SSSR davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik to'g'risidagi bitimda o'z ifodasini topgan. Arxiv fondlari yaxlitligi hamda bo'linmasligi prinsipidan kelib chiqib mazkur hujjatning ishtirokchilari sobiq Rossiya hamda SSSR oliv davlat organlari faoliyati natijasida tashkil topgan va ularning "o'z hududlaridan tashqarida" saqlanayotgan fondlarga nisbatan da'vogarlik qilmaydilar(1-modda).

<sup>18</sup> Ahish Kumar Sin. German Reunification: "It was nothing short of a miracle". February 2021.



Davlat arxivlari bo'yicha huquqiy vorislikka misol tarzda Chexoslovakiya parchalanganidan so'ng Chexiya hamda Slovakiya o'rtasidagi arxivlarini taqsimlash jarayonini ko'rsatish mumkin. 1992-yil 31-dekabrda Chexoslovakiya ikkiga bo'linganda ikki yangi davlat o'z miliy tarixlariga tegishli hujjatlarni olishga harakat qilishgan.<sup>19</sup> Sharhnomalar orqali arxivlar hududiy prinsiplar asosida taqsimlangan, ya'ni barcha hujjatlar ularning ahamiyati hamda joylashuviga qarab Chexiya va Slovakiyaga berilgan.

**4. Davlat qarzlari bo'yicha huquqiy vorislik.** Xalqaro huquqda davlatlarning davlat qarzlari bu oldingi davlatning boshqa davlatga, xalqaro tashkilotga yoki xalqaro huquqqa muvofiq kelib chiqadigan boshqa har qanday moliyaviy majburiyatları.<sup>20</sup> 1983-yil Vena konvensiyasi faqat avvalgi davlatning xalqaro huquqning boshqa subyektiga nisbatan xalqaro huquq bo'yicha yuzaga kelgan har qanday moliyaviy majburiyatlariga oid bo'lgan davlat qarzlariga tegishlidir. Davlat moliyaviy majburiyatlarining katta qismi chet el hamda davlat hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan davlatning qarzlari uning ta'sir doirasidan tashqarida qolgan. Biroq, bu kabi qarzlar ham huquqiy vorislik predmeti hisoblanadi. Vena konvensiyasi 36-moddasida belgilab qo'yilganidek, davlatlarning bu taxlit huquqiy vorisligi kreditorlarning majburiyatları huquqiga daxl qilmaydi (36-modda). Ya'ni huquqiy vorislik ba'zi hollarni istisno etganda kredit beruvchilarining huquqlariga ziyon yetkazmaydi. Huquqiy vorislikning barcha hollari uchun davlatning qarzi boshqa davlatgaadolatli tarzda va ulushlarda o'tishi belgilab qo'yilgan.

Davlat qarzlari bo'yicha huquqiy vorislikka SSSRni misol tarzda keltirishimiz mumkin. SSSR davlat qarzlariga nisbatan Sobiq Sovet respublikalari o'rtasida davlat qarzlariga nisbatan bir nechta ko'p tomonlama hamda ikki tomonlama bitimlar tuzilgan. Ulardan biri 1991-yilda Sovet Ittifoqining qarzlari va aktivlarining vorisligi to'g'risidagi ko'p tomonlama bitim bo'lgan. Mazkur bitim Sovet respublikalari o'rtasidagi murakkab kelishuv edi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin, merosxo'r davlatlar SSSRning keng ko'lAMDAGI tashqi qarzlari va chet eldag'i aktivlarini qanday

<sup>19</sup> Petr Pavlinek. Regional development and the disintegration of Czechoslovakia. November 1995.

<sup>20</sup> State succession in matters of property and debts. Session of Vancouver-2001.



hal qilish masalasida muzokaralar olib borishgan. Ko'pincha "nol variant" bitimi deb ataladigan mazkur shartnomada dastlab Rossiya Sovet Ittifoqi davridagi hamma qarzlarni Sovet xorijdagi mulklari va boshqa aktivlariga nisbatan mutlaq huquqlari evaziga o'z zimmasiga olishni taklif qildi. Lekin Ukraina va boshqa respublikalar Sovet Ittifoqi iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi va chegaraliradi sovetlarga tegishli mulklarning ko'lami tufayli ushbu aktivlardan ulush olishga intilgan va e'tirozlarini bildirgan. Amalda esa Rossiya 2006-yilga kelib Sovet tashqi qarzlarini to'liq to'lashni davom ettirdi, bu holat esa SSSRning xorijiy mulklariga bo'lgan da'vosini kuchaytirdi. Biroq Ukraina Rossianing xorijiy yurisdiksiyalaridagi sobiq sovet aktivlariga egalik qilishiga shubha bilan qaragan yuridik nizolar yillar mobaynida davom etdi va "Nol variant" kelishuvi bahsli bo'lib qoldi.<sup>21</sup>

**Xulosa.** Davlatlarning vorislik masalalari xalqaro huquqda eng murakkab va ko'p qirrali jarayonlardan biridir. Vorislikning to'g'ri tartibga soilinishi xalqaro munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega. Davlatlarning vorislik jarayonini hal qilishda xalqaro huquqiy me'yorlarni yanada kengaytirish va amaliyotga moslashtirish lozimdir. Har bir yangi davlat o'zining huquqiy vorislik jarayonini xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda, unga muvofiqlashtirgan holda olib borishi kerak. Shu bilan birga xalqaro hamjamiyat davlatlarning vorislik masalalarini adolatli hal qilishda faolroq ishtirok etishi, mavjud konvensiyalarni amaliyotga ko'proq moslashtirish zarurligi muhim tavsiyalar sifatida ta'kidlanishi mumkin. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar vorislik jarayonlarida oldingi davlat qarzlari majburiyatlarini adolatli taqsimlash yuzasidan kelishuvlarga erishishlari zarurudir. Davlatlarning vorislik jarayonida xalqaro huquqning aniqligi va izchil qo'llanilishi lozim. Vena konvensiyalari kabi xalqaro huquqiy me'yorlar ushbu jarayonni tartibga solishdagi muhim hujjatlar sanaladi, biroq har bir alohida holatda davlatlarning huquqiy, siyosiy hamda iqtisodiy sharoitlari ham inobatga olinishi kerak. Vorislik masalalarining o'z vaqtida hamda adolatli hal etilishi xalqaro nizolarni kamaytirishga va davlatlar o'rtaсидаги munosabatlarni izchil davom ettirishga xizmat qiladi.

<sup>21</sup> Alexey Uvarov. The heavy legacy of the Soviet regime. November 2022.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. R.A.Tuzmuhamedov, R.T.Hakimov. Xalqaro huquq asoslari. T, 1998. 20-21-betlar.
2. Vienna Convention on succession of States in respect of Treaties, 2005.  
[https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/3\\_2\\_1978.pdf](https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/3_2_1978.pdf)
3. A.X.Saidov. Xalqaro huquq,darslik. T,2001. 71-72-betlar
4. Xalqaro huquq, Ma'ruzalar kursi. T,2012. 42-bet.
5. Valentin Bou-Franch. Succession of States in Respect of Treaties on Human Rights.  
(<https://roderic.uv.es/rest/api/core/bitstreams/09359f7d-0e3c-4714-af29-e4e816ab11f6/content>)
6. Zoltan Barany. The challenges of building a national army in Yemen. CSIS, 2016.  
(<https://www.jstor.org/stable/pdf/resrep23345.6.pdf>)
7. Germaniya Federativ Respublikasi XX asrning ikkinchi yarmida. Maqola, 2023.  
(<https://oefen.uz/uz/documents/diplom-ishlar/umumiyl/germaniya-federativ-respublikasi-xx-asrning-ikkinchi-yarmida>)
8. I.Lukashuk, A.Saidov. Hozirgi zamon Xalaqaro huquqi nazariyasi asoslari. T,2007. 102-103-betlar. ([https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/22/NamDU-ARM-1573-Hozirgi\\_zamon\\_xalqaro\\_huquqi\\_nazariyasi\\_asoslari.pdf](https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/22/NamDU-ARM-1573-Hozirgi_zamon_xalqaro_huquqi_nazariyasi_asoslari.pdf))
9. J.R.Ismoilov. Afrikada Fransuz mustamlakalarida mustaqillik uchun kurash.  
(<https://cyberleninka.ru/article/n/afrikada-fransuz-mustamlakalarida-mustaqlilik-uchun-kurash/viewer>)
10. BBC News Uzbek – Hindiston va Pokiston:bo'linish va mustaqillik, maqola.  
(<https://www.bbc.com/uzbek/lotin-40935929.amp>)
11. The Agreement on succession issues of the former socialist Federal Republik of Yugoslavia. Cambridge University Press,2017. (<https://doi.org/10.2307/2693933>)
12. Biser Banchev. The new old states Serbia and Montenegro as successors to Yugoslavia and-or to themselves, January 2011.  
([https://www.researchgate.net/publication/308917722\\_The\\_New\\_Old\\_States\\_Serbia\\_and\\_Montenegro\\_as\\_Successors\\_to\\_Yugoslavia\\_and-or\\_to\\_Themselves](https://www.researchgate.net/publication/308917722_The_New_Old_States_Serbia_and_Montenegro_as_Successors_to_Yugoslavia_and-or_to_Themselves))
13. Milan M.Cvikl, Mojmir Mrak. Former Yugoslavia's Debt Apportionment, June 1996.

P-20,21.



(<https://documents1.worldbank.org/curated/en/735471538244644355/pdf/Former-Yugoslavias-debt-apportionment.pdf>)

14. Vienna Convention on Succession of States in respect of State Property, Archives and Debts, 1983.

([https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/3\\_3\\_1983.pdf](https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/3_3_1983.pdf))

15. State Succession in Matters of Property and Debts. Session of Vancouver-2001.  
([https://www.idi-iil.org/app/uploads/2017/06/2001\\_van\\_01\\_en.pdf](https://www.idi-iil.org/app/uploads/2017/06/2001_van_01_en.pdf))

16. The editors of Encyclopedia Britannica, Cold War(international politics), 2024.  
(<https://www.britannica.com/event/Cold-War>)

17. Konrad Adenauer Stiftung. From Fall of the Wall to Unity.  
(<https://www.kas.de/de/vom-mauerfall-zur-einheit>)

18. Ahish Kumar Sin. German Reunification: “It was nothing short of a miracle”. February 2021. (<https://www.usip.org/publications/2021/02/german-reunification-it-was-nothing-short-miracle>)

19. Petr Pavlinek. Regional development and the disintegration of Czechoslovakia. November 1995.

([https://www.researchgate.net/publication/223879367\\_Regional\\_development\\_and\\_the\\_disintegration\\_of\\_Czechoslovakia](https://www.researchgate.net/publication/223879367_Regional_development_and_the_disintegration_of_Czechoslovakia))

20. State succession in matters of property and debts. Session of Vancouver-2001.  
([https://www.idi-iil.org/app/uploads/2017/06/2001\\_van\\_01\\_en.pdf](https://www.idi-iil.org/app/uploads/2017/06/2001_van_01_en.pdf))

21. Alexey Uvarov. The heavy legacy of the Soviet regime. November 2022.  
(<https://ridl.io/the-heavy-legacy-of-the-soviet-regime/>)